



Ustoz merosidan innovatsion ta'limgacha

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

EYIB.UZ jurnali hamkorligida

San'atshunoslik va chizmachilik fanini
o'qitish metodikasida muammo hamda yechimlar

Klassik asarlar ustida ishlash. Ruhiiy hatti-harakat.

Madaliyev Abdurashid

Qo'qon davlat universiteti

“San'atshunoslik” kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada klassik asarlar ustida ishlash. Ruhiiy hatti-harakat kelib chiqishi, badiiy xususiyatlari hamda teatr san'atida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Aktyorlik mahoratini rivojlantirishdagi roli hamda klassik asarlarni ustida ishlashda teatr san'atini boyitishdagi hissasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Improvizatsiya, jismoniy harakat uslubi, , jismoniy harakatlar uslubi, tashqi-jismoniy holat, ichki-ruxiy holat.

Working on classical works. Mental attitude.

Madaliyev Abdurashid

Senior Lecturer, Department of

"Art Studies", Kokand State University

Abstract: This article analyzes the origin, artistic characteristics and role of mental attitude in the art of theater. Its role in the development of acting skills and its contribution to the enrichment of theater art in the process of working on classical works are highlighted.

Keywords: Improvisation, physical movement style, physical movement style, external-physical state, internal-mental state.

Reja:

1. Klassik asarlarda saxnaviy xatti-xarakat
2. “Agarda” berilgan shart-sharoit
3. Aktyorda badiiy did va etik madaniyatni tarbiyalash.

Biz bilamizki, K. S. Stanislavskiy tomonidan aktyorlik san'ati unsurlari qatoriga kiritilgan sehrli “agarda” aktyorni berilgan shart - sharoitga tashlaydi va shu sharoitda ilk psixofizik hatti - harakatlarni amalga oshirishiga turtki beradi. “Har kuni hayotimizdagi shart – sharoitlar betinim ravishda o'zgarib turadi. Biz esa mana shu behisob shart - sharoitlarni uchta doiraga bo'lamiz. Bu bo'linmalarni, albatta, shartli ravishda qabul qilmoq kerak. Chunki hayotdagi shart - sharoitlar bunday doiralarga bo'linmaydi.

Bunday bo'linmalar esa bizga o'zgaruvchan shart - sharoitlarni ilg'ab olishga, ularni anglashga va oxir - oqibat sahnadagi hayotni to'g'ri tashkil qilishga yordam beradi. Xo'sh, bular qanday doiralar?

1. Kichik doiradagi shart - sharoitlar.

2. O'rta doiradagi shart - sharoitlar.

3. Katta doiradagi shart - sharoitlar.

Katta doiradagi shart - sharoitlar butun hayotimizni, davrimizni o'z ichiga qamrab oladi. O'rta doiradagi shart - sharoitlar esa faqat pesa jarayonida kechilayotgan hayotni o'z ichiga oladi. *Kichik doiradagi shart - sharoitlar bo'lsa hozir, aynan shu tobda, shu soniyada bizga impuls bo'lib, hatti - harakatimizni yurgizib yuboradigan asosiy sababchi vazifasini o'taydi*".¹

Aktyorning sahnadagi hatti - harakati, asosan, kichik doiradagi shart - sharoitda kechadi. Kichik doirada shart - sharoitlar ma'lum voqelikda kechadi. Demak, hatti - harakatni boshlashdan avval, birinchi navbatda, kichik doiradagi shart - sharoitlarni aniqlash kerak ekan. Ammo buning uchun o'rta doiradagi shart - sharoitlarni bilib olish kerak. Chunki kichik doiradagi shart - sharoitlar mantig'i o'rta doiradagi shart - sharoitlarga, o'rta doiradagi shart - sharoitlar mantig'i esa katta doiradagi shart - sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Katta doiradagi shart - sharoitlardan o'rta doiradagi shart - sharoitlar, o'rta doiradagi shart - sharoitlardan esa kichik doiradagi shart - sharoitlar saralab olinadi. Ammo shu bilan birga voqelik xususiyatiga qarab, ular hatti - harakatda o'rinlarini almashtirishi ham mumkin. Kichik doira katta doiradagi, o'rta doira kichik doiradagi shart - sharoit bo'lishi ham mumkin.

Bu o'zgarishlar nimaga bog'liq? *Dramaturgiya qonuniyatidan kelib chiqadigan bo'lsak bular voqealar tizimiga va pesada qo'yilgan o'zgarishlarga bog'liq bo'lib chiqadi*. "Yana ham aniqroq qilib tushuntiradigan bo'lsak, faraz qilingki, siz poyezdning kupesida ketayapsiz. Vagon oynasi ortida sizning ko'zingizga uzoq - uzoqdagi oppoq qorlarga burkangan tog' cho'qqilari ko'rinadi. Biz bu tog' cho'qqilarini katta doiradagi shart - sharoitlar deb aytamiz. Chunki bizning poyezd manziliga yetib borguncha shu tog' cho'qqilari ko'rinib turadi. Shu bilan bir vaqtda ko'z o'ngimizda tog' cho'qqisidan yaqinroq bo'lgan yerlar o'tib boradi. Bu paxta dalalari, bog'lar, yaylovlar, cho'llar, butazorlar, yana paxta dalasi, daryo ko'prigi va hokazo. Bu joylarning o'zgarishini biz o'rta doiradagi shart - sharoitlar deb atashimiz mumkin. Ammo agarda siz yanayam yaqinroq yerlarni ko'rmoqchi bo'lsangiz, unda ko'zingizdan telegraf simyog'ochlari yo poyezd yo'liga yondoshgan avtomobil yo'llari, temiryo'l shpallari, bekat nazoratchisining mo'jazzgina uychasi ham lip - lip etib o'tib ketadi. Yo'l yoqasidagi uylar, daraxtlar, odamlar va hokozalar..."

Mana shu tez o'zgarib turgan, bizga eng yaqin joylashgan o'zgaruvchan manzaralarni kichik doiradagi shart - sharoitlar deb ataymiz".²

Biz yuqorida tilga olganimiz Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasini etyud tarzida ishlash va parchaga aylantirish uchun ushbu hikoyani talabalar bilan birgalikda o'qib chiqish kerak. Shundan keyin asar haqida bahs - munozara shaklidagi suhbat yo'li bilan dastlabki tahlil amalga oshiriladi va ijrochilar tanlanadi. Ularga hikoyani qanday tushunganliklarini aniqlash uchun o'sha sharoitlarga mos hatti - harakatlarga qurilgan etyud tayyorlab kelish topshiriladi. Ushbu etyud jarayonida talabalar o'z tabiatlarining avtor bergan sharoitlarda qanday namoyon bo'layotganligini tekshirib olishadi. Albatta bu ishda ularning

¹Zufarov U.Sahna talqini va tahlil.O'zb.dav.kons.2005y.32-34 betlar

²Zufarov U.Sahna talqini va tahlil.O'zb.dav.kons.2005y.33 - bet.

tabiati ba'zan rost, aksari hollarda yolg'on bo'lib, mantiqiy kamchiliklar ko'zga tashlanib turadi. Etyudda avtor tomonidan berilgan so'zlarga bee'tibor bo'lishadi. Avtor bejizga aynan: *"O'sha asalning puliga anor ham berar edi"*, *"Albatta berar edi! Albatta anor olmay, asal olgansiz!"*, *"Ajab qildim, jigarlarining ezilib ketsin!"* - degan iboralardan foydalanmagan. Muallif ushbu so'zlardan shart - sharoitlarni keskinlashtirish maqsadida foydalangan. YA'ni, zamon shu qadar og'irki, u ikki yoshni bir - biriga shu qadar achchiq so'zlarni aytishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu so'zlar kichik doiradagi to'qnashuvda ishlatilayotgan bo'lsada, ular o'rta va katta doiradagi sharoitlar qanchalar o'tkir va keskin ekanligiga ishoratdir. Katta doiradagi shart - sharoit 20- asrning boshlaridagi og'ir turmush bo'lsa (*avtor zamonga bunday ta'rif beradi: "Uylar to'la non, och - nahorim bolam, Ariqlar to'la suv tashnai zorim bolam"*), o'rta doiradagi shart - sharoit Turobjonning boyni uyida choy tashib tirikchilik qilishi va boshqorong'i xotiniga anor sotib olishga ham imkoni yo'qligi (*"...bir oyda oladiganim o'n sakkiz tanga pul"*). Demak, kichik doirdagi shart - sharoitga o'rta doiradagi shart - sharoit, o'rta doiradagi shart - sharoitga katta doiradagi shart - sharoit turtki beradi. Adabiy asar ustida ish kechayotgan damlarda talabaning diqqat - e'tiborini ana shu jihatlarga qaratish unda o'ta faol psixofizik hatti - harakatlarning tug'ilishiga turtki beradi. Yuqoridagi hikoyada Turobjon va uning xotini o'zaro tushunmovchilik, kelishmovchilikni keltirib chiqarayotgan o'rta va katta doiradagi sharoitlarni yenga olmasliklari tufayli bu mag'lubiyatning alamini bir - biridan olishga harakat qilishadi va natijada bir - birini ranjituvchi so'zlardan ham qaytishmaydi. Bu holat o'rtadagi ziddiyatni yanada keskinlashtiradi.

"Har qanday asardagi ishtirokchilarning fe'l - atvoriga va qanday qadam tashlashiga ta'sir etuvchi biz bilgan uchta shart - sharoit doirasidan tashqari yana bir shart - sharoit doirasi mavjud. Bu - asarning janri. Janrni aniqlash asarning sahnaviy yechimini ham, har bir aktyorning ijro uslubini ham aniqlab beruvchi omildir. Ana shu sharoitlarning to'rtinchi doirasi - janrni *o'zgartirish* asarning *o'zgarishiga* olib keladi. Avvalo "janr nima?" degan savolga javob berishdan oldin, bir tasavvur qilib ko'raylik, agarda mashhur klassik asarlar mualliflar tomonidan boshqacharoq atalganda nima bo'lardi. Masalan, Gogol "Revizor" asarini komediya emas, drama deganida asar butunlay o'zgarib ketgan bo'lardi! Yoki "Gamlet" komediya deb belgilanganda - chi? Ko'rinib turibdiki, janr - hech qachon nazardan chetda qoldirish mumkin bo'lmagan sharoit ekan".³ Milliy adabiyotimiz namunalaridan ham faraz qilib ko'raylik, agar Abdulla Qahhor o'zining "Tobutdan tovush" asarini satirik komediya emas, drama deb, yoki Hamza Hakimzoda Niyoziy "Boy ila xizmatchi" asarini drama emas, komediya deb nomlaganda nima bo'lardi? Barcha fikrlar o'zgacha tus olgan bo'lardi.

"Har bir asar u yoki bu ma'noda hayotni aks ettiradi. Ana shu aks ettirish ulubi, muallifning borliqqa qay yo'sinda, qaysi tomon yoki qaysi burchakdan qarashi -

³ Sarabyan Elvira. Aktyorskiy trening po sisteme Georgiya Tovstonogova. Rossiya. OOO «Izdatelstvo AST».2010. 134 -bet.

janr deyiladi".⁴ Agar biz teatr san'ati vositalari yordamida ana shu ko'z qarash yo'nalishini, nuqtai - nazar burchagini aniqlay olsak, shundagina asarning janr xususiyatlarini kashf eta olamiz. Qarashlarni ifodalash esa muallifning hayotni nafaqat u yoki bu qiyofada ko'ra olish qobiliyatiga, balki hayotning ana shu bo'lagini ifodalashdan maqsadi nima ekanligiga ham bog'liq. Shuni anglay olsak, nega bir yozuvchi insonni bu qiyofada, boshqa bir yozuvchi boshqa bir qiyofada ko'rishining sababini bilib olamiz. Adabiy asar asosini tashkil etuvchi faktlar bir - biriga o'xshash bo'lishi mumkin. Ba'zan turli yozuvchilarning asarlarida bir - biriga o'xshash tarixiy davrni, muhitni, berilgan shart - sharoitlarni uchratamiz. Lekin shuning barobarida bir - biriga mutlaqo o'xshamagan asarlarga duch kelgan bo'lamiz. Chunki bizga bir - biriga o'xshash tuyulgan bu sharoitlar mualliflar tomonidan mutlaqo boshqa - boshqa ko'z qarashlar bilan yoritilgan. Yoki bir muallifning bir davr va muhitga, sharoitlarga turlicha qarashi. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi" komediyasi bilan "Boy ila xizmatchi" dramasi bir davrni aks ettiradi. Ammo mutlaqo bir - biriga o'xshamagan asarlar. Bu asarlarni o'qiy turib ularning mutlaqo boshqa - boshqa janrda yozilganligiga ishonch hosil qilamiz.

Biz ushbu bo'limni "Muallif tomonidan berilgan shart - sharoit doiralarini hatti - harakatlar yordamida o'zlashtirish" deb nomladik. Demak muallif tomonidan berilgan, o'sha biz bilgan uchta shart - sharoit doiralari va to'rtinchi sharoit doirasi - janrni o'zlashtirishda hatti - harakat qilishning, "o'yin qoidalari"ning qaysi bir uslubi tanlanishi alohida ahamiyatga ega ekan. "Asarning janr xususiyatlariga aktyorning tomosha zaliga munosabat uslubi katta ta'sir ko'rsatadi. Bir janrga aktyor va tomoshabinni ajratib turuvchi "to'rtinchi devor" zarur bo'lsa, boshqa bir janr, aksincha, sahnaviy voqeaga tomoshabinning hamdardligini talab qiladi. Bu haqda Tovstonogov bunday degandi: Asarlarning janr jihatdan bir - biridan farqi nafaqat berilgan shart - sharoitlarni saralab olishga, shuning bilan birga tomoshabinga nisbatan qanday "o'yin qoidalari"ni qo'llashga ham bog'liq. Aktyorning tomoshabin bilan muloqotga kirishish uslubi har bir spektaklda o'ziga xos tarzda tanlanishi kerak. Uning xarakteri asarning zamirida, mazmunida, badiiy ifodasida joylashgan bo'ladi. Spektakl boshlangan paytdayoq aktyor tomoshabin bilan bugungi spektaklning "o'yin qoidalari"ni kelishib olgandek o'zini tutadi. Bir pesada u to'g'ridan - to'g'ri tomosha zalida o'tirgan kishilarga murojaat qilsa, boshqasida - xuddi tomosha zali yo'qdek harakat qiladi".⁵ Muallif tomonidan berilgan shart - sharoitlarni hatti - harakatlar yordamida o'zlashtirishda asarning o'zagida mavjud bo'lgan janr xususiyatini e'tibordan qochirmaslik muallif g'oyasini sahnada jonlantirishning asosiy omillaridan biri ekan.

Tayanch iboralar: aktyorda badiiy did va etik madaniyat, insonning emotsional xotirasi, aktyor xis-tuyg'usi, mantiqiy – izchillik, improvizatsiya, jismoniy harakat uslubi, , jismoniy harakatlar uslubi, tashqi-jismoniy holat, ichki-ruxiy holat, mushaklar erkinligiga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar

⁴ Sarabyan Elvira. Aktyorskiy trening po sisteme Georgiya Tovstonogova. RossiY. OOO «Izdatelstvo AST».2010. 136 -bet.

⁵ Sarabyan Elvira. Aktyorskiy trening po sisteme Georgiya Tovstonogova. RossiY. OOO «Izdatelstvo AST».2010. 139 -bet.

1. Abdullayeva M. "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik maxorati" –"Tafakkur qanoti" nashriyoti-T.: 2014.
2. Maxmudova X. "Aktyorlik maxorati" fani majmuasidan mashqlar matn. -T., 2016 y.
3. Djon Benedikt. "Aktyorning o'z ustida ishlashi"(K.S.Stanislavskiy)- Routledge.